

ISIRIQNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Meliqulov Otabek Jamol o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti asisstanti

Xolliyev To'lqin Toshtemir o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Farmatsiya fakulteti 411-guruh talabasi

Anotatsiya: Issiriqning tabobatdagi o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, sir emaski bu o'simlik "tabiat gavharlaridan" biri hisoblanadi. U tabobatda keng miqyosda ishlatiladi. O'simlikning bunday keng miqyosda ishlatilishi-shiga sabab, uning tarkibida alkaloidlar, peganol, peganidin, garmin, garmalin, turli moylar, oshlovchi moddalarning mavjudligidir. Yuqoridagi moddalardan misol tariqasida oladigan bo'lsak garmin asab tizimi-ni tinchlantiradi, bosh miya yallig'lanish asorati-qaltirashni davolashda va uxlatuvchi modda (dori) sifatida ishlatilgan.

Kalit so'zlar: alkaloid, bosh og'rig'i, katarakta, tish o'g'rig'i, yurak faoliyati yaxshilash.

Isiriq(Peganum)-isiriqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. Bo'yi 60-70 sm ni tashkil qiladi. Poyasi bir nechta sershox. Barglari kulrang yoki yashil. Gullari sarg'ish-oq, shoxlarining uchida joylashgan. 6 turi ma'lum, shulardan 1 turi (**Peganum Harmala**) O'zbekistonda uchraydi. Urug'idan jun gazlama va shoyilar uchun bo'yoq olinadi.

O'simlik ildizida 3.3% gacha, poyasida 3.57% gacha, bargida 4.96% va urug'ida 6.60% gacha alkaloidlar borligi qayd qilingan bo'lib, ular yig'indisan garmalin, garmin, peganol, dezoksi peganin kabi moddalar ajratib olingan. Isiriq qadim zamonlardan beri sharq meditsinasida qo'llanilib kelinayotgan shifobaxsh gilyohlardan xisoblanadi.

Garmalin bu harmala (isiriqning O'zbekistondagi turi) va boshqa ba'zi o'simliklarning beta-karbolin alkaloidi hisoblanadi. Garmalin markaziy asab tizimining stimulyatori va "qaytariladigan MAO-A ingibitori". Bu shuni anglatadiki gipertenziv inqirozni rivojlanish xavfi, pishloq kabi yuqori miqdorda tiramin bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlarini iste'mol qilish natijasida qon bosimining xavfli o'sishi, ehtimol fenilzin kami qaytarib bo'lmaydigan MAO ingibitirlariga qaraganda kam bo'ladi. Isiriq alkaloidlari inson tanasida psixoaktiv xisoblanadi. Garmalin atsetilxolinesteraza ingibitori sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, garmalin yuqori dozalarda kalamushlarda dofaminning chiqarilishini rag'batlantiradi. Garmalin monoamin oksidaza A ning qaytariladigan ingibitori bo'lganligi sababli u nazariy jihatdan, tiramin, serotonergiklar, katexolaminergik dorilar yoki oldingi dorilar bilan

birgalikda serotonin sindiromi va gipertenziv inqirozni keltirib chiqorishi mumkin. Garmalin serotoninning anabolik metobolizmini normelotoninga yoki n-asetilserotoninga, so'ngra uyqu siklini tartibga soluvchi asosiy garmon va kuchli antioksidant bo'lgan melotoninga aylantiradi.

Xalq meditsinasida isiriqdan tayyorlangan qaynatma va damlamalardan bezgak, tutqanoq, nevrasteniya, shamollash bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda foydalaniladi. Isiriqdan tayyorlangan qaynatma bilan og'iz chayiladigan bo'lsa, og'iz bo'shlig'i va tamoqning shamollashiga barham beradi. Isiriqning peshob haydovchi, tish og'rig'i, terlatuvchi, gripni oldini oluvchi, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini davolovchi xususiyatlari ham mavjud.

Isiriqning foydalari:

- Isiriq poyasi kudirib hidlansa bosh og'rig'i qoladi.
- Tinchlantiruvchi vosita sifatida ham ishlatiladi. Uyqusizlikdan qutqaradi.
- Isiriqning tanasidagi sutli shirasi paxtaga shimdirilib 10 kun mobaynida qichima bo'lgan joyga surtilsa shifo bo'ladi.
- Urug'i kamfora, sedana, murch, qora zira, zafaron va petrushka urug'lari bilan teng miqdorda aralashtiriladi. Va asal yki shaker qo'shib kuniga bir mahal ichiladi. Bu yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Asab kasalliklarida, tizza oyoqlar og'riganda Ibn Sino bobomiz, poyasini ezib bog'lashni tavsiya qilganlar.
- Ich dam bo'lganda isiriq urug'iga yalpiz yoki zanjabil aralashtirib ichilsa, ich dam bo'lishidan xolos etadi.
- O'simlikning shirasi-kataraktada ancha samara beradi.
- Qaynatmasi bilan yuzni yuvsa ham davo hisoblanadi.
- Isiriqning shonalash davrida olinadigan o'ti va urug'lari davolashda ancha samarali hisoblanadi.
- Isirig' urug'i qaynatmasi nafas olish qiyinlashganda, nafas qisishida zig'ir urug'lari bilan aralashtirib ichilsa yaxshi foyda beradi.

Isiriq damlamasi tayyorlanishi:

Idishga 250 gr suv, bir choy qoshiq maydalangan isiriq qo'shib past olovda 5 daqiqa mobaynida qaynatiladi. Qaynatib bo'lingach qopqog'i yopilib 2 soatga tindiriladi. So'ngra dokadan suzib olinib kuniga ovqatdan oldin 3-4 mahal bir osh qoshiqdan ichiladi

Bu damlaman yuqorida ko'rsatilib o'tilgan shamollash, tamoq og'riqlari, tutqanoq, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari kabi holatlarda foydalaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki isiriq bu keng ko'lamli tibbiy vosita demakdir. Isiriq shifobaxshligi qadim zamonlardan ma'lum. Bu dorivor o'simlik haqida Abu Rayxon Beruniyning "Kitob as-saydana fit-tibb" kitobida, Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobining 2-jildida dorivor o'simliklar qatorida keltirib o'tilgan. Bu o'simlik dezinfeksiya sifatida, oshqozon ichak tizimi kasalliklarida, tutqanoq, shamollash, yurak tizimi faoliyatida, zahmga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.J.Meliqulov, N.D.Kodirov, & E.S.Baymuradov (2022). 4-XLOR-5,6-DIMETILTIENO[2,3-D]PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. Ta'lim fidoyilari, 18 (5), 285-288.
2. Меликулов, О. Ж., Кодиров, Н. Д., Баймуратов, Э. С., & ИСПОЛЬЗОВАНИЕ, Б. В. Ф. ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-barbarisa-v-farmakoterapii>.
3. Mirzoyeva, F. A., Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Medicinal plants and their properties. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1140-1144.
4. Meliqulov, O. J., & Kodirov, N. D. (2022). 1.4-benzodiazepinning tibbiyotda qo'llanadigan vositalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 313-317.
5. Захидов, К. А., Меликулов, О. Ж., Гайбуллаев, Ш. Ш., & Орипов, Э. О. (2018). ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ФАКТОРОВ НА НАПРАВЛЕНИЕ РЕАКЦИИ АЛКИЛИРОВАНИЯ 2-АЦЕТИЛАМИНО-6-МЕТИЛ (ФЕНИЛ) ПИРИМИДИН-4-ОНОВ. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 54.
6. Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Dori vositasiga shakl berish va dori vositadagi ta'sir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi haqida tushuncha. *Science and Education*, 3(11), 126-134.
7. Meliqulov O. J., Kodirov N. D. Furan va uning tibbiyotda ishlatiladigan hosilalari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 178-185.
8. Meliqulov, O. J., Kodirov, N. D., & Baymuradov, E. S. (2022). 4-XLOR-5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. *Ta'lim fidoyilari*, 18(5), 285-288.
9. Meliqulov, O. (2021). 2H-4-GIDRAZINIL-5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-d] PIRIMIDINNING sINTEZI VA UNING ALDEGIDLAR BILAN KONDENSATSIYA REAKSIYALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Meliqulov, O. J., & Baymuradov, E. S. (2022). 2H-4-GIDRAZINIL5, 6-DIMETIL TIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING AROMATIK ALDEGIDLAR BILAN REAKSIYASI. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Dori vositasiga shakl berish va dori vositadagi ta'sir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi haqida tushuncha. *Science and Education*, 3(11), 126-134.
12. Meliqulov, O. J., & Kodirov, N. D. (2022). 1.4-benzodiazepinning tibbiyotda qo'llanadigan vositalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 313-317.